



MUSIQIY-ESTETIK MADANIYAT TARBIYASI VA TALABANING MA'NAVIIY
ISTE'MOL MADANIYATI

G.I.Maxmudova

NavDU "Musiqi ta'limi va san'at" mutaxassisligi 1-kurs magistranti

O.A.Xayitov

Ilmiy rahbar: NavDU "Musiqiy ta'lim" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, musiqiy-estetik tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari, texnologiyalaridan samarali foydalanish, Talabanning ma'naviy iste'mol madaniyati, axborot oqimidan talabanning ma'naviy ehtiyojlari, musiqiy-estetik kamoloti hamda "ma'naviy filtr", ma'naviy iste'mol madaniyati, musiqiy-estetik dunyoqarashi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar. *Mafkuraviy xuruj, ma'naviy tarbiya, milliy san'at, milliy qadriyat, ma'naviy meros, maqom, baxshichilik, globallashuv, estetik immunitet, deviantlik, , mem-obrazlar, "ma'naviy filtr".*

Аннотация. *В этой научной статье говорится о воспитании молодежи духовно-нравственной, физической гармонии, повышении системы образования на качественно новый уровень, содержательной организации досуга молодежи, эффективном использовании педагогических возможностей, технологий музыкально-эстетического воспитания, духовной потребительской культуры студента, духовных потребностях студента от потока информации, музыкально-эстетическом духовный фильтр, культура духовного потребления, музыкально-эстетическое мировоззрение.*

Ключевые слова. *Идеологическое увлечение, духовное воспитание, национальное искусство, национальная ценность, духовное наследие, статус, садоводство, глобализация, эстетический иммунитет, девиантность, мем-образы, «духовный фильтр».*

Abstract. *This scientific article refers to the education of youth of spiritual and moral, physical harmony, raising the education system to a qualitatively new level, meaningful organization of youth leisure, effective use of pedagogical opportunities, technologies of musical and aesthetic education, spiritual consumer culture of the student, spiritual needs of the student from the flow of information, musical and aesthetic spiritual filter, culture of spiritual consumption, musical and aesthetic worldview.*

Keywords. *Ideological fascination, spiritual education, national art, national value, spiritual heritage, status, gardening, globalization, aesthetic immunity, deviance, meme images, "spiritual filter."*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 11.09.2023 yildagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida PF-158-son farmonining ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar deb nomlangan 1.5. bandida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish, o'zbek milliy san'atini targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish, maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo'nalishlarida kamida o'nta xalqaro festival va anjumanlar o'tkazish, sohada ta'lim berishga kamida yigirma nafar yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilab berildi[1.]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Ma'naviy yo'nalishlarimiz iqtisodiy yo'nalishlardan o'n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi”[105], tarzida ifodalangan metodologik prinsip ma'naviy-ma'rifiy faoliyat funksiyalarini, rolini, o'rnini, ahamiyatini asoslab berdi. Mazkur g'oyalar O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning asosiy negizlaridan biri sifatida xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish yo'nalishiga zamin yaratdi. Amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning beshinchi yo'nalishi “Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish”, deb belgilangan. Ushbu yo'nalishda sohani “yangi”, sifat bosqichiga olib chiqish vazifasi masalaning modernizatsion mohiyatini belgilab beradi. Shuningdek, taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida inson kapitalini rivojlantirish hamda bevosita ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarini amalga oshirish, aholining 18-30 yoshli qatlami milliy tafakkurini rivojlantirish, mamlakatda ma'rifatli jamiyatni barpo qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [2]. Mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat avvalambor xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy merosiga tayanadi. Zero bu meros milliy mafkura, ma'naviyatimizning mustahkam manbaidir. Shu bois, ma'naviy-ma'rifiy vazifalar tarkibida milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo'lga qo'yish o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Bugungi shiddatli globallashtirish jarayonida san'at pedagogikasining yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, estetik immunitetni rivojlantirishga yo'naltirilgan mexanizmlarning “Pop-art”, “Pop-musiq”, “Kitch”, “Starizm” kabi deviantlik holatlarni oldini olishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa shaxsni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog'lomlashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda.

Dunyoning umumiy bilimlarining o'ziga xos elementi bo'lib, umuman olganda, tovush tasvirlarida hayotning muhim jarayonlarini ifoda etadi, musiqa san'ati bir vaqtning o'zida estetik faoliyatning o'ziga xos normasi hisoblanadi. Musiqaning o'ziga xosligi shundaki, unda ma'naviyat va ma'daniyat inson hayotining ajralmas bo'lagi sifatida mavjud, shuning uchun





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



musiqa estetika bilan bevosita bog'liq bo'lgan san'at turi sifatida insonning musiqiy va estetik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu jarayon ma'naviy boyitishga, qimmatli munosabatlar va estetik dunyoqarashning asoslarini rivojlantirishga, qarashlar va g'oyalarni umumlashtirishga asoslangan zamonaviy dunyoqarashni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida talabalarni estetik tarbiyalash falsafasi, metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirish, uni obyektiv baholashning artpedagogik mezon va darajalarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar san'at turlarining mohiyatini "hayotni aks ettirish", "bunyodkorlik", "bilim berish", "baholash", "mafura", "o'yin", "o'zlikni ifodalash", "muloqot", "qadriyatlar tili" kabi san'at konsepsiyalarining metodologik tahlili, san'at turlari mohiyatini definititsiyalash, talabalarning mafkuraviy sog'lomlik darajasini oshirish muammolarini o'z ichiga olib, xalqaro miqyosda yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyalashning yangi modellarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida olib borilgan islohotlar natijasida talabalar o'rtasida xalqimiz ma'naviyati, milliy qadriyatlarini targ'iboti uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, musiqiy-estetik tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari, texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" ning[3.] ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada "ommaviy madaniyat"ning turlariga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish, talabalarni estetik tarbiyalash jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarining kasbiy ta'limi muammolari, ularning sub'ektivligini, ijodkorligini, o'zini o'zi anglashini rivojlantirish, universitetning ta'lim salohiyati samaradorligini oshirish, madaniy-ma'rifiy muhitning roli muhim hisoblanadi. Musiqiy va estetik tarbiya nazariyasi va amaliyotining tahlilidagi asosiy qarama-qarshiliklarni o'rganish asosiy maqsadimizga aylandi. Bular: jamiyatning madaniy, musiqiy va estetik madaniyatga ega mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji va talabalarining musiqiy va estetik madaniyatini shakllantirishda Oliy Ta'lim muassasasi ta'lim maydonining potentsialini oshirish uchun zarur ilmiy va uslubiy ta'minotning yo'qligi bo'lib hisoblanadi.

Talabalarda milliy madaniyat va san'atning musiqiy-estetik jozibasiga ma'naviy ehtiyojni shakllantirish o'zida mustahkam e'tiqod va badiiy qadriyatlar uyg'unligini mujassam qilgan shaxs tarbiyasining eng muhim omillaridan biridir. Yuqorida qayd qilingan holatlardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalarining badiiy to'garaklarida talabalarni musiqiy-estetik tarbiyalash texnologiyalarini takomillashtirishning quyidagi pedagogik vazifalarini amalga oshirish zarurligini ta'kidlamogda;

- Talabalarda musiqiy-estetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishdan masalalarini asoslab berish;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- ta'lim tarixidagi musiqiy-estetik tarbiya haqidagi falsafiy va pedagogik g'oyalar genezisini kuzatish;
- musiqiy-estetik madaniyatni shakllantirish jarayonining mohiyati, mazmuni va tuzilishini talabalar shaxsining ajralmas qismi sifatida ochib berish;
- talabalarning musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta'minlaydigan ehtimoliy tarkibiy modelni ishlab chiqish;
- talabalarning musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlar majmuasini aniqlash va asoslash.

Madaniy-ma'naviy hayot sohalarining globallashuv jahonda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda mazmunan ko'proq daromad topishga qaratilgan, shaklan turli xil ko'rinishga ega bo'lgan, mohiyatan o'zga elat, millat, xalqlarning asrlar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarini ichidan parchalab tashlash evaziga, ularni madaniy-ma'naviy qaramlikka mahkum qilishga yo'g'rilgan katta moliyaviy qudratga ega bo'lgan davlat va shaxslar tomonidan tez suratlar bilan sodir etilayotgan jarayonlarda namoyon bo'lmoqda. Jumladan hordiq sanoati, san'at industriyasi, shou biznesning shakllanishi iste'molchi talabiga ko'ra maxsulotni taklif qilinishi bilan xarakterlanadi. Bu sohalarda bozor munosabatlarining shakllanishi natijasida dunyoda "tomosha industriyasi" yuzaga keldi. Uning ta'sirida "ermak va tomoshalar" shiori ostida istemolchilik ruhiyati avj oldirilayapti.

Madaniyat sohasida iste'molchilik kayfiyatining shakllanishi milliy manaviyatning takomillashib, yanada boyib borishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki iste'molchilik kayfiyati kuchaygan jamiyat a'zolari o'z milliy manaviyatini yangi asoslarda boyitishdan ko'ra tayyoriga taqlid qilish, uni o'z manaviyatining tarkibiga kiritishga moyil bo'lishadi. Bu esa jamiyat a'zolarini ma'naviy qaramlikka olib keladi. Shu ma'noda siyosatshunos Z.Bzejnskiy: "Amerikaliklarning qiziqishiga, ovqatlanish va hatto kiyinish odatlarigacha butun dunyoda taqlid qilishadi",[5]—deb ta'kidlaydi. Madaniy iste'molchilik kayfiyatining rivojlanishi madaniy va manaviy boyliklarga nisbatan munosabatga, shu bilan birga, milliy ma'naviyatningreal hayotdagi ifodasi bo'lmish urf-odatlar, ana'na va marosimlar,qadriyatlarga nisbatan ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni kishilar hayotidan siqib chiqaradi. Bugun yoshlar orasida urf bo'lib borayotgan ochiq-sochiq kiyinish, muomalada milliy tilga e'tiborsizlik, Yevropa mentalitetiga intilish kabi holatlarni ko'plab uchratish mumkin. Bular barchasi milliy manaviyatning axloqiy asoslariga putur yetkazadi.

Bugungi kunda madaniy-ma'naviy mahsulotlar, san'at asarlari asosan, AQSH, Yevropa va Sharq mamlakatlari ma'naviy hayotini keng targ'ib etmoqda desak mubolag'a bo'lmas. Bu borada taniqli amerikalik siyosatshunos Z.Bzejnskiy "Amerika televizion dasturlari va filmlari bu sohada dunyo bozorining deyarli to'rt dan uch qismini egallaydi. Amerika ommabob musiqasi eng yetakchi pog'onani egallagan, internet tili—inglizcha, global kompyuter tarmog'idagi so'zlashishning asosiy qismi ham amerikacha va "global suhbatlar"ga o'z ta'sirini o'tkazmoqda",[5] deb ta'kidlaydi. Bulardan, AQSH, Yevropa mamlakatlari manaviyati ekspansiyasining naqadar avj olganligiga amin bo'lish mumkin.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Professor S.Otamuratov globallashuv va umuminsoniy ma'naviyat orasidagi munosabatlarni falsafiy tahlil qiladi va "Umuminsoniy manaviyatning xarakterli jihati shundaki, unda til emas, insonlarning ruhiyatida ezgulik tafakkuri belgilovchi omil sifatida barcha insonlar va millatlarni yaqinlashtiradi, ularga zavq va shavq bag'ishlab ularning bardavomligiga xizmat qiladi. Masalan, o'zbeklarning maqomi, baxshichilik san'atlari, o'zbeklardagi kattaga hurmat, kichikka izzat hayoliylik tamoyili va shunga o'xshagan millatning ichidan qaynab chiqadigan g'oyalar hamda ularning amal qilayotgani barcha xalqlar sevib tomosha qilmoqda va ma'naviy ozuqa olmoqda" [6].

So'z, mem-obrazlar, musiqa, badiiy adabiyot, tasviriy san'at va boshqa badiiy-estetik kontentning tez va ommaviy tarqatilishi mafkuraviy globallashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda globallashuvning ushbu yo'nalishining imkoniyati va qamrovi keskin darajada o'sganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda globallashuv tufayli badiiy estetik mahsulotlar – musiqa, matn, obraz, rolik, klip, kitob, kartina, kinofilmlar iste'mol qilinadigan musiqiy-estetik tovarga aylangan ekan, har bir talabada ma'naviy iste'mol madaniyatini tarbiyalash lozim bo'ladi. "Talabaniing ma'naviy iste'mol madaniyati(TMIM)" bu - axborot oqimidan talabaniing ma'naviy ehtiyojlari, musiqiy-estetik kamoloti hamda ijodiy salohiyati rivojlanishiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va foydalanishiga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalari majmuini anglatadi.

Talabalarda TMIMni tarbiyalash natijasi o'laroq, talaba u yoki bu axborotni eshitar ekan, "Bu axborotni kim uzatayapti?", "Nima uchun uzatayapti?", "Kimga uzatayapti?", "Qanday maqsadda uzatayapti?", degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topa olishi kerak. Ana shunda globallashuv ta'sirida ommalashayotgan yot musiqiy-estetik g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldini oluvchi "ma'naviy filtr" ishga tushadi. Talabalarda shakllangan ma'naviy iste'mol madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, talabalarning badiiy, musiqiy-estetik dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Amalga oshirilgan nazariy tahlillar natijasida bugungi kunda mafkuraviy globallashuv tahdidlariga qarshi samarali kurashish uchun musiqiy-estetik madaniyat tarbiyasining quyidagi yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqligi aniqlandi:

- Musiqiy-estetik tarbiyaning milliy g'oya, milliy san'at, badiiy tafakkur bilan uyg'unligini asoslash;
- Badiiy asarlar talqinini umuminsoniy qadriyatlar, milliy urf-odat, an'ana va tamoyillar bilan bog'liq holda tashkil etish;
- Talaba yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyalash jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalar bilan aloqadorlikda yo'lga qo'yish;
- Talaba yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va axborot xurujlaridan muhofazalash mexanizmini rivojlantirishda badiiy-estetik qadriyatlardan keng foydalanish;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



- San'at va madaniyat mavzuida yoritadigan jurnalistlar virtual klubini tashkil qilish orqali yoshlarga san'at va madaniyat masalalarini chuqurroq o'rganishga yaqindan yordam berish, san'atshunoslar ishtirokida suhbatlar o'tkazib, yoshlarning musiqiy-estetik dunyoqarashini muntazam rivojlantirib borish;

Talaba-yoshlarda ma'naviy iste'mol madaniyatini shakllantirish musiqiy-estetik tarbiya samaradorligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. Toshkent sh. 2023 yil 11 sentabr, PF-158-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 29 dekabr kuni milliy kino san'ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqidan. Kun Uz. 13:43 / 30.12.2017.
5. Бзежинский З. Великая шахматная доска (господство Америки и его геостратегические императивы – М.: Международные отношения, 1998.–С.256.
6. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. –Toshkent, "O'zbekiston" NMK, 2018. - 478 b. 167-b.
7. Mustafayev Sh. Barkamol shaxs tarbiyasida san'at va pedagogika uyg'unligi // Fan va jamiyat. Ilmiy uslubiy jurnal. 2-son –Nukus, 2021. – B. 86-88. (13.00.00; №3).